TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## *2021- YIL YANVAR-MART*

Sanoat statistikasi bolimi
Tel.: 71-202-86-66

# Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-mart)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 16252,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,0 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86.5 %ni tashkil etdi.




*__B__–Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, __C__-Ishlab chiqaradigan sanoat __D__-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, __E__-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 5,3 % hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 2,1 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 42,7 % pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,1 %ga o'sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *%da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 %ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Ko‘mir**




**Kaolin**




**Tabiiy gaz**




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ko‘mir, ming t. | 1000,6 | 918,5 | -82,1 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 81,951 | 76,940 | -5,011 |
| Chaqiq tosh, ming t | 69,797 | 91,081 | 21,284 |
| Shag‘al , ming t. | 11,439 | - | -11,439 |
| Kaolin, ming t. | 11,154 | 39,338 | 28,184 |

# Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,1 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,5 %ini tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoq 1,1 %ni (2020- yilning yanvar -mart oylarida - 1,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 8,8 % (12,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 54,8 % (49,4 %) va quyi texnologiyalisi – 21,8 % (20,5 %)ni tashkil etdi.

### Yuqori texnologiyali




### O‘rta-yuqori texnologiyali




### O‘rta-quyi texnologiyali




### quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,1% (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 48,3 % (104,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,8 % (109,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,4 % (111,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,1 % (86,5 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 31,535 ming dona avtomobil dvigitellari (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 51,2 %), 8,051 ming tonna kalava ip (1,5 %) kamaygan, 86,827 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (3,7 %), 22,857 mln. litr pivo mahsulotlari (17,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 83,745 | 86,827 | 3,082 |
| Paxta tolasi, ming t.. | 6,408 | 11,557 | 5,149 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t. | 2,035 | 1,674 | -0,361 |
| Portlandsement, ming t. | 824,939 | 901,950 | 77,011 |
| Kultivatorlar,dona. | 259 | 232 | -27 |
| Avtomobil dvigitellari, ming dona | 64,615 | 31,535 | -33,08 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, etil spirti (101,4 %) mahsulotida o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 17,2 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*



# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (9,2 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,1 %ga pasayishi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 4646,0 | 3824,0 | -822 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1285,2 | 1275,0 | -10,2 |
| **Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan gaz,** *ming kub. m.* | 81951,0 | 76940,0 | -5,011 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish






Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,06 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln.so‘m** | 9884,2 | 12911,4 | 3027,2 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlar, mln.so‘m** | 26250,9 | 31734,8 | 11483,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlar- 34,3 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3176,6 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 13,9 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 13,0 % (2020- yil yanvar-mart oyida 16,6 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to‘g‘ri kelib, 16,4 %ni, shuningdek, Ohangaron shahri 9,4 %ni, Qibray tumani 9,5 %ni, Angren shahri 7,7 %ni hamda Chirchiq shahri 11,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (113,9 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Bekobod (140,6 %), Chirchiq (140,3 %) shahlarida hamda Quyichirchiq tumanida (133,5 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 3176,6 | 100,0 | 113,9 |
| Nurafshon. | 37,1 | 1,2 | 105,8 |
| Bo'ka | 29,2 | 0,9 | 131,7 |
| Olmaliq | 60,0 | 1,9 | 90,2 |
| Zangiota | 522,5 | 16,4 | 134,0 |
| Angren | 245,6 | 7,7 | 111,2 |
| Yuqorichirchiq | 149,7 | 4,7 | 101,2 |
| Bekobod | 58,7 | 1,8 | 140,6 |
| Quyichirchiq | 53,7 | 1,7 | 133,5 |
| Ohangaron | 299,9 | 9,4 | 100,6 |
| Qibray | 300,8 | 9,5 | 112,3 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Chirchiq | 367,5 | 11,6 | 140,3 |
| Parkent | 66,4 | 2,1 | 100,7 |
| Yangiyo'l | 71,2 | 2,2 | 80,4 |
| Piskent | 63,6 | 2,0 | 113,3 |
| Oqqo'rg'on | 131,8 | 4,1 | 116,5 |
| O'rtachirchiq | 106,4 | 3,4 | 103,3 |
| Ohangaron | 18,3 | 0,6 | 112,2 |
| Chinoz | 62,2 | 2,0 | 99,6 |
| Bekobod | 28,9 | 0,9 | 98,1 |
| Yangiyo'l | 179,1 | 5,6 | 130,1 |
| Bo'stonliq | 84,7 | 2,7 | 95,9 |
| Toshkent | 239,5 | 7,5 | 101,5 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ohangaron shahriga to‘g‘ri kelib, 14,1 % ni, shuningdek, Chirchiq shahrida 17,4 % ni, Qibray tumanlarida 4,6 % ni, Toshkent tumanida 9,5% hamda Zangiota tumanida 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Bekobod (147,0 %) , hamda Chirchiq shaharlarida (136,9 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-mart oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 1497,1 | 100,0 | 108,9 |
| Nurafshon. | 24,0 | 1,6 | 107,2 |
| Bo'ka | 15,5 | 1,0 | 150,0 |
| Olmaliq | 43,0 | 2,9 | 84,1 |
| Zangiota | 126,3 | 8,4 | 94,8 |
| Angren | 97,1 | 6,5 | 103,2 |
| Yuqorichirchiq | 57,6 | 3,8 | 109,5 |
| Bekobod | 46,5 | 3,1 | 147,0 |
| Quyichirchiq | 30,4 | 2,0 | 143,5 |
| Ohangaron | 211,7 | 14,1 | 96,3 |
| Qibray | 69,0 | 4,6 | 106,3 |
| Chirchiq | 260,8 | 17,4 | 136,9 |
| Parkent | 35,5 | 2,4 | 114,9 |
| Yangiyo'l | 36,9 | 2,5 | 79,7 |
| Piskent | 12,8 | 0,9 | 85,8 |
| Oqqo'rg'on | 53,2 | 3,6 | 115,7 |
| O'rtachirchiq | 59,8 | 4,0 | 114,4 |
| Ohangaron | 9,2 | 0,6 | 126,8 |
| Chinoz | 33,5 | 2,2 | 106,2 |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 14,7 | 1,0 | 105,3 |
| Bekobod | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 94,5 | 6,3 | 126,1 |
| Yangiyo'l | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 23,6 | 1,6 | 87,0 |
| Bo'stonliq | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 141,6 | 9,5 | 103,0 |
| Toshkent | | |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniiga to‘g‘ri kelib, 23,6 %ni, shuningdek, Qibray tumani 13,8 %ni, Ohangaron shahri esa 5,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Chirchiq (149,4 %), Olmaliq (110,4 %) hamda Angren shaharlarida (117,1 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 679,5 | 100,0 | 118,7 |
| Toshkent viloyati | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 13,2 | 0,8 | 103,4 |
| Nurafshon | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 13,7 | 0,8 | 115,8 |
| Bo'ka | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 16,9 | 1,0 | 110,4 |
| Olmaliq | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 396,1 | 23,6 | 154,4 |
| Zangiota | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 148,5 | 8,8 | 117,1 |
| Angren | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 92,2 | 5,5 | 96,7 |
| Yuqorichirchiq | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 12,2 | 0,7 | 120,7 |
| Bekobod | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 23,3 | 1,4 | 122,3 |
| Quyichirchiq | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 88,2 | 5,3 | 112,6 |
| Ohangaron | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 231,8 | 13,8 | 114,3 |
| Qibray | | |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Chirchiq | 106,7 | 6,4 | 149,4 |
| Parkent | 30,9 | 1,8 | 88,2 |
| Yangiyo'l | 34,3 | 2,0 | 81,1 |
| Piskent | 50,8 | 3,0 | 123,3 |
| Oqqo'rg'on | 78,6 | 4,7 | 117,1 |
| O'rtachirchiq | 46,6 | 2,8 | 91,9 |
| Ohangaron | 9,1 | 0,5 | 100,6 |
| Chinoz | 28,7 | 1,7 | 92,9 |
| Bekobod | 14,2 | 0,8 | 91,6 |
| Yangiyo'l | 84,6 | 5,0 | 134,8 |
| Bo'stonliq | 61,1 | 3,6 | 99,8 |
| Toshkent | 97,9 | 5,8 | 99,3 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3185,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 19.6 %ni tashkil etdi.

## Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-mart oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 16252,0 | 100,0 | 103,60 |
| **Nurafshon.** | 247,6 | 1,5 | 80,2 |
| **Bo'ka** | 101,0 | 0,6 | 187,6 |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 6833,1 | 42,0 | 105,5 |

**Olmaliq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1244,4 | 7,7 | 94,6 |

**Angren**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1705,1 | 10,5 | 100,1 |

**Bekobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 722,6 | 4,4 | 103,3 |

**Ohangaron**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1047,9 | 6,4 | 90,7 |

**Chirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 137,4 | 0,8 | 100,1 |

**Yangiyo'l**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 198,1 | 1,2 | 109,5 |

**Oqqo'rg'on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 71,3 | 0,4 | 101,0 |

**Ohangaron**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 51,3 | 0,3 | 60,6 |

**Bekobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 264,0 | 1,6 | 91,4 |

**Bo'stonliq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 984,8 | 6,1 | 82,4 |

**Zangiota**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1031,0 | 6,3 | 109,8 |

**Qibray**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 175,2 | 1,1 | 125,4 |

**Quyichirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 67,9 | 0,4 | 94,7 |

**Parkent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 75,0 | 0,5 | 109,5 |

**Piskent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 197,2 | 1,2 | 104,5 |

**O'rtachirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 111,5 | 0,7 | 112,1 |

**Chinoz**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 314,6 | 1,9 | 110,5 |

**Yuqorichirchiq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 336,8 | 2,1 | 101,7 |

**Toshkent**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 334,2 | 2,1 | 110,6 |

**Yangiyo'l**

## Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, %da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Bo'stonliq (2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 91,4 %), Parkent 94,7 %), Bekobod (60,6 %) tumanlarida hamda Chirchiq shahri (90,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

## <u>Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da</u>

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Olmaliq (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 42,0% ) hamda Bekobod (10,5 %), Chirchiq (6,4%),Angren (7,7%),va Ohangaron (4,4 %) shaharlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Ohangaron (0,4 %) hamda Bekobod (0,3 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (51121,2 ming so‘m), Ohangaron (18469,4 ming so‘m) va Bekobod (17559,4 ming so‘m) shaharlarida  o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (5451,8 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1065,6  ming so‘m bo‘lgani holda, Ohangaron shahrida – 7665,1 ming so‘mni, Zangiota tumanida – 2678,9 ming so‘mni, Qibray tumanida – 1484,9 ming so‘mni, Chirchiq shahrida 2253,5 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-mart oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 5451,8 | 1065,6 |
| Nurafshon | 4793,0 | 718,7 |
| Bo'ka | 790,5 | 228,7 |
| Olmaliq | 51121,2 | 448,7 |
| Zangiota | 5049,5 | 2678,9 |
| Angren | 6490,0 | 1281,1 |
| Qibray | 5090,3 | 1484,9 |
| Ohangaron | 18469,4 | 7665,1 |
| Quyichirchiq | 1588,8 | 487,1 |
| Bekobod | 17559,4 | 604,4 |
| Parkent | 430,7 | 420,8 |
| Chirchiq | 6425,5 | 2253,5 |
| Piskent | 733,9 | 621,9 |
| Yangiyo'l | 2215,6 | 1148,0 |
| O'rtachirchiq | 1381,6 | 745,8 |
| Oqqo'rg'on | 1859,4 | 1237,1 |
| Chinoz | 817,3 | 455,5 |

| Ohangaron | |
| --- | --- |
| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
| 734,2 | 188,1 |

| Yuqorichirchiq | |
| --- | --- |
| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
| 2253,9 | 1072,7 |

| Bekobod | |
| --- | --- |
| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
| 320,9 | 180,8 |

| Toshkent | |
| --- | --- |
| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
| 1834,4 | 1304,3 |

| Bo'stonliq | |
| --- | --- |
| *anoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
| 1541,6 | 494,4 |

| Yangiyo'l | |
| --- | --- |
| *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
| 1590,4 | 852,2 |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2021- yilning yanvar-mart oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2726,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,8 %ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bekobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0%), Parkent (94,8%), Chinoz (54,1 %), Ohangaron (66,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Olmaliq (1,1 %), Bekobod (2,1 %) va Chirchiq (26,5 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi**
**tashkil etilgan sanoat korxonalari**
*(2021- yil 1- aprel holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 8800 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1286 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 14,6 %) Zangiota tumaniga, 815tasi (9,3 %) Qibray tumaniga, 756 tasi (8,6 %) Toshkent tumaniga, 441 tasi (5,0 %) Chirchiq shahriga, 436 tasi (5.0 %) Angren shahriga  to‘gri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 440 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 28 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 10,2%) Qibray tumanida, 45 tasi (10,2%) Zangiota tumanida, 35 tasi (8,0%) Toshkent tumanida, 23 tasi (5,2%) Yangiyo'l tumanida, 23 tasi (5,2 %) Yuqorichirchiq tumanida tashkil etildi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 247 ta loyiha bo‘yicha 0.6 trln. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 6,2 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021-yilning yanvar- mart oylarida 201 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 30,5 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2020-yilning yanvar- mart oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining oshganligi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari




**Loyihalar soni,** *birlikda*




**Korxonalar soni,** *birlikda*




**Ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd. so‘m*




**Yaratilgan yangi ish o‘rinlari,** *birlikda*




**Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi,** *mln. AQSh dollari*

**2020- yil yanvar-mart** **2021- yil yanvar-mart**